

Demografik holat

(dastlabki ma'lumotlar)

Doimiy aholi soni.


Buxoro viloyati doimiy aholisi soni 2021- yil 1 yanvar holatiga 1946,9 ming kishini tashkil etib, yil boshiga nisbatan 23,0 ming kishiga yoki 1,2 % ga o'sgan. Jumladan, shahar aholisi soni 715,5 ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi 36,8 %), qishloq aholisi soni 1231,4 ming kishini (63,2 %) tashkil etdi.

E'tibor bering: 2020- yil yanvar-dekabr

- Aholi soni **23,0 ming kishiga** ko'paydi.
- Tirik tug'ilganlar soni **41,5 ming nafarni** tashkil etdi.
- **10,1 mingta** vafot etganlar qayd etildi.
- FHDYO bo'limlarida **15,8 mingta nikoh** va **1,5 mingta ajralishlar** ro'yxatga olindi.

Buxoro viloyatidagi demografik ko'rsatkichlar

(2020- yil yanvar-dekabr oylarida)



Demografik holat

Hududlar kesimida doimiy aholi sonining o'tgan yilning shu davriga nisbatan taqqoslanishi

	2020- yil	2021- yil*	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
Buxoro viloyati	1 923,9	1946,9	101,2
Buxoro sh.	280,2	281,4	100,4
Kogon sh.	61,1	61,5	100,7
tumanlar:			
Olot	98,9	100,1	101,2
Buxoro	166,2	168,8	101,6
Vobkent	139,5	141,3	101,3
G'ijduvon	303,4	307,1	101,2
Kogon	78,0	79,4	101,8
Qorako'l	163,8	165,0	100,8
Qorovulbozor	18,3	18,5	101,1
Peshku	122,5	124,6	101,7
Romitan	141,1	143,8	101,9
Jondor	174,0	176,5	101,4
Shofirkon	176,9	178,9	101,1


*) dastlabki ma'lumot

Viloyat hududlari kesimida tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, 2021- yil 1 yanvar holatiga eng ko'p aholi soni G'ijduvon tumanida 307,1 ming kishini (viloyat aholisi sonidagi ulushi 15,8 % ni) va Buxoro shahrida 281,4 ming kishini (14,5 %), aksincha eng kam aholi soni Kogon shahrida 61,5 ming kishi (3,2 %) va Qorovulbozor tumanida 18,5 ming kishini (0,9 %) tashkil etdi.


Hududlar kesimida aholining eng yuqori o'sish sur'ati 2020- yilning mos davriga nisbatan Romitan tumanida 1,9 %ni, Kogon tumanida 1,8 %ni, Peshku tumanida 1,7 %ni, Buxoro tumanida 1,6 %, Jondor tumanida 1,4 %ni, Vobkent tumanida 1,3 %, aksincha eng kam o'sish sur'ati Qorako'l tumanida 0,8 %ni va Kogon shahrida 0,7 %ni, Buxoro shahrida 0,4 %ni tashkil etdi.

Demografik holat

Hududlar kesimida doimiy aholi sonining taqsimlanishi (2021- yil 1 yanvar holatiga, ming kishi dastlabki ma'lumot)



Hududlar kesimida doimiy aholi sonining shahar va qishloqlarga bo'linishi (2021- yil 1 yanvar holatiga, ming kishi dastlabki ma'lumot)




Demografik holat

Jinsi bo'yicha doimiy aholi sonining bo'linishi (2021- yil 1 yanvar holatiga, ming kishi dastlabki ma'lumot)

	erkak	ayol
Buxoro viloyati	975,1	971,8
Buxoro sh.	139,9	141,5
Kogon sh.	30,0	31,5
<i>tumanlar:</i>		
Olot	50,1	50,0
Buxoro	84,6	84,2
Vobkent	71,0	70,3
G'ijduvon	156,8	150,3
Kogon	39,3	40,1
Qorako'l	81,5	83,5
Qorovulbozor	9,2	9,3
Peshku	62,3	62,3
Romitan	72,8	71,0
Jondor	87,4	89,1
Shofirkon	90,2	88,7

Hududlar kesimida aholi zichligi (2021- yil 1 yanvar holatiga, 1 kv kmga to'g'ri keladigan aholi)



Demografik holat

Tug'ilish. 2020- yilning yanvar-dekabr oylarida 41,5 mingta bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib (bu yerda va bundan keyin tug'ilganlarga faqat tirik tug'ilganlar inobatga olingan), mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti 21,4 promilleni tashkil etib, 2019- yilning mos davriga nisbatan -0,2 promillega kamaygan (2019- yilning yanvar-dekabr oylarida 21,6 promille bo'lgan).

Tug'ilish koeffitsiyenti 2020- yilning mos davriga nisbatan G'ijduvon tumanida (22,4 promilledan 22,8 promillega), Romitan tumanida (22,6 promilledan 22,8 promillega) sezilarli o'sgan bo'lib, aksincha sezilarli kamayish Qorovulbozor tumanida (21,9 promilledan 19,9 promillega), Kogon tumanida (23,8 promilledan 23,1 promillega), Vobkent tumanida (22,4 promilledan 21,8 promillega), Olot tumanida (21,8 promilledan 21,3 promillega) va Jondor tumanida (22,0 promilledan 21,6 promillega) kuzatildi.

Ma'lumot uchun

Tirik tug'ilganlik mezonlaridan (nafas, yurak urishi, kindik pulsatsiyasi, muskullarning beixtiyoriy qisqarishi) biri mavjud bo'lsa ham bola tirik tug'ilgan hisoblanadi. Bunda onaning homiladorlik muddati 22 hafta va undan ortiq, bolaning bo'yi 25 sm va undan ortiq, vazni 500gramm va undan ortiq bo'lishi lozim.

Qiz bolalar:
21,2
ming nafar

O'g'il bolalar:
20,3
ming nafar

Hududlar kesimida tug'ilganlar soni va koeffitsiyenti (2020- yil yanvar-dekabr)



Demografik holat

Buxoro viloyati bo'yicha tug'ilganlar soni, kishi
(yanvar-dekabr)

	2019- y.	2020- y.	O'sish sur'ati %da
Buxoro viloyati	41141	41504	100,9
Buxoro sh.	5094	5306	104,2
Kogon sh.	1164	1168	100,3
<i>tumanlar:</i>			
Olot	2139	2123	99,3
Buxoro	3368	3302	98,0
Vobkent	3103	3062	98,7
G'ijduvon	6763	6969	103,0
Kogon	1847	1819	98,5
Qorako'l	3726	3718	99,8
Qorovulbozor	397	366	92,2
Peshku	2760	2787	101,0
Romitan	3154	3242	102,8
Jondor	3789	3780	99,8
Shofirkon	3837	3862	100,7

Demografik holat

Vafot etganlar. 2020- yilning yanvar-dekabr oylarida 10,1 mingta o'lim qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti 5,2 promilleni tashkil etdi, 2019- yilning mos davriga nisbatan 0,9 promillega ko'paygan (2019- yilning yanvar-dekabr oylarida 4,3 promille bo'lgan).

O'lim koeffitsiyenti 2019- yilning mos davriga nisbatan sezilarli darajada Buxoro shahrida (4,9 promilledan 7,0 promillega), Kogon shahrida (4,9 promilledan 6,2 promillega), Buxoro tumanida (3,9 promilledan 4,9 promillega), G'ijduvon tumanida (4,2 promilledan 5,2 promillega) sezilarli darajada o'sish holati kuzatildi.


Vafot etganlar



Erkaklar:
5,3 ming
kishi

Ayollar:
4,8 ming
kishi

Hududlar kesimida o'lganlar soni va koeffitsiyenti (2020- yil yanvar-dekabr)



Demografik holat

Buxoro viloyati bo'yicha o'lganlar soni, kishi (yanvar-dekabr)


	2019- y.	2020- y.	O'sish sur'ati %da
Buxoro viloyati	8335	10058	120,7
Buxoro sh.	1361	1961	144,1
Kogon sh.	301	382	126,9
<i>tumanlar:</i>			
Olot	457	478	104,6
Buxoro	649	827	127,4
Vobkent	568	709	124,8
G'ijduvon	1283	1586	123,6
Kogon	370	436	117,8
Qorako'l	756	774	102,4
Qorovulbozor	58	71	122,4
Peshku	483	500	103,5
Romitan	510	641	125,7
Jondor	716	795	111,0
Shofirkon	823	898	101,1

Demografik holat

2020- yilning yanvar-dekabr oylarida qayd etilgan vafot etganlarning 60,2 %i qon aylanish tizimi kasalliklaridan, 7,9 %i o'simtalardan, 3,6 %i baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 3,4 %i ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan, 11,2 %i nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 2,7 %i yuqumli va parazitar kasalliklardan hamda 11,0 %i boshqa kasalliklardan vafot etgan.

Ro'yxatga olingan 1 yoshgacha vafot etgan bolalar soni 305 nafarni tashkil etib, ularning 61,6 %i perinatal davrda yuzaga keladigan holatlardan, 0,3 %i ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan, 9,8 %i nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 11,5 %i tug'ma anomaliyalardan, 1,3 %i baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 7,2 %i yuqumli parazitar kasalliklardan va 8,3 %i boshqa kasalliklardan vafot etgan.

Asosiy o'lim sabablari bo'yicha vafot etganlarning taqsimlanishi (jami vafot etganlarga nisbatan, %da)



2020- yil yanvar-dekabr

Tabiiy o'sish. 2020- yilning yanvar-dekabr oylarida aholining tabiiy o'sishi 31,4 ming kishini tashkil etib, 2019-yilning mos davriga nisbatan 1,6 ming kishiga kamaydi. (2019- yilning yanvar-dekabr oylarida 33,0 ming kishi bo'lgan)



Tabiiy o'sish:
31,4 ming kishi

Nikoh.

2020- yilning yanvar-dekabr oylarida FHDYO organlari tomonidan 15,8 ming nikoh qayd etildi, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsiyenti 8,1 promilleni tashkil etdi.


Tuzilgan nikohlar soni 2019- yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'ati Shofirkon tumani (106,4 %) va Romitan tumani (105,5 %) to'g'ri kelmoqda.

Nikohdan ajralishlar.

2020- yilning yanvar-dekabr oylarida FHDYO organlari tomonidan 1,5mingta nikohdan ajralishlar qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralganlik koeffitsiyenti 0,8 promilleni tashkil etdi.


Ajrimlar soni 2019- yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Romitan tumani (120,9 %) va Buxoro tumani (100,8 %) to'g'ri kelmoqda.

Hududlar kesimida nikoh tuzganlar soni va koeffitsiyenti (2020- yil yanvar-dekabr)



Demografik holat

Hududlar kesimida nikohdan ajralganlar soni va koeffitsiyenti (2020- yil yanvar-dekabr)



Buxoro viloyati bo'yicha tuzilgan nikohlar va ajrimlar soni, birlik (yanvar-dekabr)

	Tuzilgan nikohlar			Nikohdan ajralishlar		
	2019- y.	2020- y.	O'sish sur'ati %da	2019- y.	2020- y.	O'sish sur'ati %da
Buxoro viloyati	15974	15770	98,7	1724	1517	88,0
Buxoro sh.	2348	2178	92,8	553	448	81,0
Kogon sh.	470	455	96,8	77	74	96,1
<i>tumanlar:</i>						
Olot	848	755	89,0	62	55	88,7
Buxoro	1264	1113	88,1	133	134	100,8
Vobkent	1154	1160	96,2	85	75	88,2
G'ijduvon	2573	2652	100,5	227	192	84,6
Kogon	594	621	104,5	86	83	96,5
Qorako'l	1474	1530	103,8	108	95	88,0
Qorovulbozor	149	156	104,7	16	14	87,5
Peshku	1086	981	90,3	73	66	90,4
Romitan	1113	1174	105,5	91	110	120,9
Jondor	1381	1378	99,8	95	90	94,7
Shofirkon	1520	1617	106,4	118	81	68,6

Migratsiya

2020- yil yanvar-dekabr oylarida viloyat bo'yicha ko'chib kelganlar soni 4,9 ming kishini, ko'chib ketganlar soni esa 13,4 ming kishini tashkil etdi. Migratsiya saldosini minus 8,5 ming kishi bo'lib, 2019-yilning mos davrida minus 3,6 ming kishi bo'lgan.

Aholi migratsiyasi (ming kishi)

	2019- yil yanvar-dekabr	2020- yil yanvar-dekabr
Ko'chib kelganlar	5,6	4,9
Ko'chib ketganlar	9,2	13,4
Migratsiya saldosini	-3,6	-8,5

Migratsiya saldosining yuqori darajasi Buxoro shahri (minus 2133 kishi) va Qorako'l tumanida (minus 1665 kishi) qayd etildi.

